

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

**ТИЛШУНОС ОЛИМА МУҲАББАТ АБДУЛЛАЕВА –
ФОНЕТИКА ВА ФОНОЛОГИЯ ИЛМИНИНГ ЕТУК
МУТАХАССИСИ**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТҮПЛАМИ**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI XORIJY TILLAR FAKULTETI INGLIZ
TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

"Tilshunos olima Muhabbat Abdullayeva - fonetika va fonologiya
ilmining yetuk mutaxassisini"

UNIVERSITET ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMANI

KAFEDRA OLIMASI M.Q.ABDULLAYEVA TAVALLUDINING 80 YILLIGIGA
BAG'ISHLANDI

QAYSI TILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ

ABDULLAYEVA TAVALLUDINING 80 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI

Manzil: Buxoro davlat universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol ko'chasi 11-uy.

БУХОРО – 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

**ТИЛШУНОС ОЛИМА МУҲАББАТ АБДУЛЛАЕВА –
ФОНЕТИКА ВА ФОНОЛОГИЯ ИЛМИНИНГ ЕТУК
МУТАХАССИСИ**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТҮПЛАМИ**

БУХОРО – 2020

Тилшунос олима Мұхаббат Абдуллаева – фонетика ва фонология илмининг етук мутахассиси: мақола ва тезислар түплами, түпловчи ва нашрға тайёрловчи: М.А.Шукрова, О.И.Жумаева, И.И.Акрамов; Бухоро; “Дурдона” нашриёти, 2020 йил, 273 бет.

Түпламда республикамиз олимлари, катта илмий ходим-изланувчилари ва мустақил изланувчиларининг хорижий тилларда ўкув ва бадий адабиётлар, электрон дарсликлар, ихтисослаштирилган расмлар билан безатилган газеталар ва журналларни яратиш ҳамда чоп этиш самарадорлигини ошириш, ёшларда чет тилни эгаллаш даражаларининг Европа тизими (CEFR)ни ўрганишнинг ўрни, ёшларга чет тилини ўргатишнинг психологик аспектлари, чет тилини ўрганишда тил хусусиятларининг аҳамияти ва муаммолари, тил ва маданиятлараро коммуникация методлари, тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари, услубшунос олимларнинг илғор тажрибаларининг роли каби масалалар талқинига бағишлиланган мақолалари ўз ифодасини топган. Түпламда тил муаммолари билан қизиқувчи илмий ходимлар, катта илмий-ходим изланувчилар, мустақил тадқиқотчи-изланувчилар, магистрантлар ва ўқувчилар фойдаланишлари мумкин.

Тахрир ҳайъати:

Проф. О.Х.Хамидов, и.ф.ф.д. (PhD), доц. О.С.Қаҳхоров, проф. М.Қ.Бақоева, проф. Д.С.Ўраева, ф.ф.д. М.М.Жўраева, масъул мухаррир ф.ф.н., доц. З.И.Расулов, масъул котиба М.А.Шукрова

Түпловчи ва нашрға тайёрловчи:

Инглиз тилшунослиги кафедраси ўқитувчилари: М.А.Шукрова,
О.И.Жумаева, И.И.Акрамов;

Тақризчилар:

Филология фанлари номзоди, доцент М.Ҳ.Алимова
Филология фанлари номзоди, доцент Н.Б.Бакаев
Филология фанлари номзоди, доцент З.Б.Тошев

Түплам БухДУ Хорижий тиллар факультети кенгашида мұхокама қилинган ва нашрға тавсия қилинган (2020 йил 29 октябрьдаги 3-сонли баённома)

Used Literature:

1. Алимова М.Х. Некоторые типологические особенности слова в структуре узбекского языка. European Science (Journal). Scientific Publishing «Problems of Science» 2018, №10 (42), pp.38-42.
2. Alimova M.Kh., Jilina O.Yu. Expression of causative meaning in the structures of the Uzbek and English languages. Central Asian Journal of Education. 2019, №4, pp.2-39.
3. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. М., 1979.
4. Буранов Д.Ж.Сравнительная типология английского и тюркских языков. М., 1983.
5. Петерсон М.Н. Современный русский язык. М., 1929.
6. Фортунатов Ф.Ф. Сравнительное языкознание. М., 1900.
7. Ярцева В.Н. Об аналитических формах. Вкн. Морфологическая структура слова в языках различных типов. М. –Л., 1963.

LEKSIK BIRLIKLARNI SINXRON TARJIMADA IFODALASH IMKONIYATLARI

Abdullayeva G.G.

Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasи o'qituvchisi

Leksik birlik tarjimasi haqida so'z yuritishdan oldin leksik birlik tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olish lozim. Leksik birlik deganda aksariyat hollarda so'z tushuniladi. Leksik birlikni bunday tushunish leksikologik nuqtai nazardan olganda to'g'ridir. Leksik birlikni tarjima nuqtai nazardan tushuntirib berish tarjima birligi tushunchasini hal etish bilan bevosita bog'liq. L.S. Barxudarovning fikriga ko'ra, tilda mavjud bo'lgan barcha birliklar (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap) tarjima birligi bo'lishi mumkin. Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to'g'ri kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarjimada so'zga so'z, so'zga so'z birikmasi, hattoki, so'zga gap to'g'ri kelishi mumkin. Shu asosda tarjimadagi leksik birlik deganda bir so'z va so'z birikmasini yoki bir so'zga to'g'ri keladigan frazeologik birlikni ham tushunishimiz mumkin.¹

Til orqali o'z fikrlarini ifodalayotgan inson fikrlashda yangi so'zlardan foydalanmaydi, balki o'zining lug'at boyligidagi so'zlardan foydalanadi. Tarjimon ham bir tildagi fikrlarini o'girayotganda tilning lug'at tarkibidagi so'zlarni ishlatadi. Shu boisdan, tarjimonning ongida mavjud bo'gan lug'at, u tarjima qilayotgan til imkoniyatlariga bog'liq ravishda boyib boradi. Tillar ifoda imkoniyatlari esa, jumladan, keng va torligi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Tarjima

¹G'ofurov I. va boshqalar. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.- Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2012- 107b

tilida aynan xorijiy tildagi so'zni ifodalovchi leksemaning mavjud bo'lmasligi, o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning kundalik hayotida bu so'z tasvirlayotgan moddiylikning yo'qligi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, leksik boy til sohiblari yoki aholisi faoliyati kengroq rivojlangan mamlakatlar tilidan ishlab chiqarish faoliyati torroq bo'lgan mamlakatlar tiliga tarjima qilish jarayoni qiyinroq kechadi. Masalan, ingliz tilidagi "software" ("dasturiy ta'monot") so'zining Sibirdagi eskimoslar tilida ekvivalenti mavjud emas.

Demak, tillarning mustaqil taraqqiyot jarayonini boshlaridan kechirishlari tufayli bir xil tizimga oid tillar tarkiblari dagi har jihatdan o'xshash lisoniy vositalar ham ayrim matniy holatlarda bir-birlarini almashtirishga ojizlik qilib qoladilar. Bu, jumladan, tillarning mustaqil tarixiy taraqqiyot yo'llarini bosib o'tishlari, shu bois muayyan tushunchani, fikrni ifoda etishda ulargagina xos imkoniyatlardan kelib chiqilishi bilan bog'liqdir.

Tarjimada ma'noni yetkazib berishda, asosan, bir nechta tarjima qilish imkoniyatlaridan foydalaniladi. Bunda 3 ta turli xarakterli vaziyatlarni hisobga olish zarur: 1) tarjima qilinishi kerak bo'gan tilda so'zning (umuman bir so'zning yoki matndagi ma'lum ma'no semantikasining)mos ekvivalenti yo'qligi; 2) noto'liq mos kelish, ya'ni so'zlar xorijiy tildagi so'z ma'nosining bir qismini qoplaydi; 3) ko'p ma'noli so'zlarning har bir ma'nosini boshqa-boshqa mustaqil so'zlar bilan ifodalanishi;

Bir ma'noli so'zlarning tarjimada bir ma'noli so'zlar bilan to'liq mos tushishi kamdan-kam uchraydigan holatdir. Bu esa o'z navbatida til leksikasining muayyan qatlamlariga tegishli so'lar doirasida uchraydi. Masalan, atamalar, kalendar bilan bog'liq tushunchalar (oylar, hafta kunlari nomlari), bir nechta qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar (fils, son, сын – о'gil; fille, daughter, дочь – qiz; neveu, nephew, племянник – jiyan), bir nechta hayvon nomlari, kishilik olmoshlari va shunga o'xshash boshqa tushunchalar.

Tarjimada tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun tarjimondan aniq tarjima qilish talab qilinadi. So'zlar mazmuni yakka holda anglanmaydi, xuddi original matndagi kabi bu yerda ham kontekstning so'z ma'nosini ochishda roli katta. Ba'zan so'z ma'nosini kontekstda yanada kengroq ochib beriladi, bu tarjimonning mahorati va tajribasiga bog'liq. Ba'zan original mayndagi so'z tarjima tilida ikki so'z bilan beriladi yoki, aksincha, ikki so'z bir so'z bilan berilishi ham mumkin. Hattoki, butun bir atama tarjimada tushirib qoldirilishi yoki olmosh orqali berilish hollari ham bo'ladi. Keyinchalik tarjima davomida olmosh o'rnila aynan so'zning o'zi keladi. Shuningdek, ma'lum bir gap ma'nosini ham mustaqil anglanilmaydi, uning ma'nosini keyingi gaplar bilan ba'zan butun bir abzats bilan bog'liq bo'ladi. Natijada, tarjima jarayonida bir gap bir nechta kichik bo'laklarga ajratilib yoki bir nechta gaplar bitta katta gappa birlashtirilib tarjima qilinishi mumkin. Darhaqiqat, original tildagi har bir so'z yoki har bir gap tarjimada matndagi ko'plab boshqa elementlarga bog'langan hisoblanadi. Hatto, alohida olingan bir so'zni tarjima qilishda ham so'z atrofidagi gaplar (konteksti) nazarda tutmoq lozim.

Asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Ayniqsa, polisemantik so'zlar tarjimasini ancha murakkab, chunki so'z ma'nosining qaysi biri qo'llanilganini aniqlash tarjimaning birinchi galdeg'i vazifasi hisoblanadi. Bunda tarjimonga kontekst yordam beradi. Tilshunoslikda odatda kontekstning 2 turi — lingvistik va ekstra lingvistik turlari mavjud. Lingvistik kontekst o'z navbatida ikki turga — keng va tor ma'nodagi kontekstlarga bo'linadi. Tor ma'nodagi kontekst ibora va gap doirasida, keng ma'nodagi kontekst iboradan katta katta bo'lган birlik hamda butun bir matnni o'z ichiga olishi mumkin. Aksariyat hollarda so'z ma'nosini kichik kontekst doirasida aniqlanadi. O'z ma'nosida qo'llangan so'zlar va ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Kontekstda odatda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanmaganda tarjima muammosi paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda so'z ma'nosini to'liq anglash uchun butun bir gapni tushunishimiz lozim bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlardan keragini tanlashda kontekstning ahamiyati katta. Masalan, ingliz tilidagi "bus" so'zini olaylik. Bu so'z ot vazifasida kelganda "avtobus yoki trolleybus" so'zining qisqargan shakli, fe'l ma'nosida esa faqat Amerika va Kanadada "bolalarni bir hududdan ikkinchi hududga avtobusda tashimoq" ma'nolariga ega. Bundan tashqari bu so'z talabalar oshxonasi dagi lavhalarda ishlatilib, "o'z-o'ziga xizmat qilish, ya'ni patnisni olib, uni ishlatib bo'lgandan keyin bo'shagan idishlar bilan joyiga olib borib qo'yamoq" ma'nolariga ega.¹ Muayyan so'z tarjimasini uning kontekstdagi tahlilidan bioshlanadi hamda bu tarjimada tegishli va muqobil so'zni tanlash imkonini beradi. Turli kontekstlar manba til, ya'ni asliyatdagi qo'llangan so'z ma'nosini ochishda qo'l kelishi mumkin. So'z tanlashda muammo, asosan, tarjima tilda asliyatda qo'llangan so'zga qisman muqobil bo'ladigan so'z to'g'ri kelganda hamda muqobil so'zning o'zi yo'q bo'Iganda yuzaga chiqadi. Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilish bir qator muammo yaratadi. Bu muammolarni ijobjiy hal etish tarjimondan chuqur bilim, mahorat handa tarjima usullarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Shuni esda saqlash lozimki, sinxron tarjima so'z ma'nosini kontekstdan anglash bir munkha qiyinroq. Chunki matnni eshitgan zahotiyoy tarjima qilayotgan tarjimon kontekstni tahlil qilishga har doim ham ulgurmasligi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ikki til lisoniy vositalarining bir-birlariga barcha ma'no va vazifalari jihatidan o'zaro mos ekvivalentlar orqali muvofiq kelish hollari kamdan-kam uchraydi. Binobarin, ko'pchilik lisoniy vositalarning tarjima tilidagi lug'aviy ekvivalentlariga nisbatan nutqda ko'proq yoki kamroq ishlatilishlari ikki til ekvivalentlarining barcha matniy vaziyatlarda bir-birlarini almashtirishlariga yo'l qo'yilmaydi. Bunday vaziyatda muammo matniy muvofiq variantni qidirib topish hisobiga hal etiladi.

¹G'ofurov I. va boshqalar. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2012- 104 b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismatullayeva N.R. Sinxron tarjima masalalari fanidan ma'ruza matnlari. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasи. Toshkent, 2013 – 55 b
2. G'ofurov I. va boshqalar. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.- Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2012- 169b
3. Garzone G., Viezzi M. Interpreting in the 21st Century: Challenges and opportunities. -Amsterdam : John Benjamins Publishing Company, 2000. – 335 p

INTONATSIYA VA OHANGNING PASAYUVCHI VA KO'TARILUVCHI XUSUSIYATLARI

*Yadgarova Zebiniso Tolibovna
Buxoro Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasи
o'qituvchisi*

Intonatsiya o'zining sostavli elementlari, nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi, nutq tempi, nutq tembri, logic va fraza urg'ulari bilan xarakterlanadi. Shu sababdan intonatsiya nutqiy talaffuz jarayonida murakkab kompleksdan iborat bo'lgan fonostistik hodisasidir. Uning gramatik jihatlarini o'rganishning bir obyekti bo'lsa, ikkinchi jihat intonatsiyaning konnotativ ma'no darajasi ya'ni uslubiy xususiyatidir.¹

Intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ilmiy uslubdan tashqari barcha nutq uslublarida intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi kuchlidir. Intonatsiya gapda turli xil vazifalarni bajaradi. Jumladan, u gap turini, komponentlari orasidagi bog'lanishni, moddaligini, emotsional bo'yog'ini hamda ifodalagan sanash, qarama-qarshi qo'yish, chog'ishtirish kabi qo'shimcha mazmunlarni ham ifodalaydi.²

Intonatsiyaning yuqoridaqgi vazifalarni bajarishda ohangning pasayish va ko'tarilishi muhim rol o'ynaydi. Antipova E.Y. "English Intonation" (i-1974) kitobida intonatsiya va ohangning pasayuvchi va ko'tariluvchi xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot bergen.

Qaysi tilde bo'lmasin, intonatsiya og'zaki nutqqa xos bo'lib, alohida bir sintagmani tashkil qiladi. Nutq melodikasi va ritmi, nutq tezligi va tembi, logic urg'u kabi intonatsiyaning tarkibiy qismidir, ularning barchasi supersegment hodisalar sanalgan va doimo tarkibida yashaydi.

Ingliz tilidan intonatsiyaning ikki turi: ko'tariluvchi va pasayuvchi turlari mavjud. Ingliz tilidagi intonatsiyaning turli xillarini tahlil qilishda tilshunos olim

¹Haydarov A. Konnotativ ma'nining fonetik vositalarda ifodalanishi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. T; 2009-B.62.

²Abduazizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfologiyasi. T.: 1992, 134 b.

3-ШЎБА: ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ҚИЁСИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМА МУАММОЛАРИ

Гадоева М.И. Инглиз тилидаги “head” - (бош) компонентли соматик фразеологик бирликлар семантикаси.....	136
Alimova M.KH., Oripova M.J. Role of comparative typology in teaching English as a foreign language.....	139
Abdullayeva G.G. Leksik birliklarni sinxron tarjimada ifodalash imkoniyatlari.....	142
Yadgarova Z.T. Intonatsiya va ohangning pasayuvchi va ko’tariluvchi xususiyatlari.....	145
Зокирова Н.С. Бадиий таржимада эквивалентлик ва адекватлик тушунчалари.....	148
Kabilova F., Turayeva K.T. English translation of Abdullah Qadiri's novel "Days gone by" and its reflection skills.....	151
Khalibekova A.K. Axiological features of phraseological units with zoonym component in English and Uzbek languages.....	156
Saydullayeva S.S. Verbal and non-verbal manifestations of verbal etiquette in speech.....	158
Shukurova M.A., Karamatova D. Some notions on the comparative analysis of stylistic devices in the English and Uzbek languages (in the example of metonymy).....	161
Shukurova M.A., Abdullayeva N. Ingliz va O’zbek tillarida majburiylik ma`nosining ifodalananishining o`ziga xos xususiyatlari.....	163
Shukurova M.A., Yo`ldosheva M. Comparative analysis of metaphors in the English and Uzbek languages.....	167
Shukurova M.A., Khayrullayeva A. Comparative analysis of structural-grammatical features of nouns in the English and Uzbek languages.....	169
Xodjayeva D.I., Xusenova M.O`. Fonetik terminlarning qiyosiy tahlili (izohli lug`atlar misolida).....	172
Madrahimova R.Sh. Shekspir asarlaridan ba’zi ifodalarning tarjimlari.....	177
Yadgarova Z.T., Hamroyeva Sh.Sh. O’zbek va ingliz tillarida olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	179

4-ШЎБА: ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Rasulov Z.I. Implications from phonology for teaching a second language.....	183
Xasanova D. Classroom study in identity.....	187